

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.I.Yo'lbarsova	
Biologiya yo'nalishi talabalarining bioetik madaniyatini rivojlantirishning nazariy jihatlarini	219
U.Q.Maqsudov	
Jahon transformatsiyasi sharoitida talabalarning innovatsion va startap loyihalardagi faolligini shakllantirishning pedagogik yo'nalishlari	223
A.A.Shikina	
How does AI contribute to boosting self-esteem among efl learners? A case study of Fergana State and TATU Universities	229
N.K.Abbasova	
Insights, challenges, and needs of esp teachers in the efl context	239
D.B.Abbasova	
Improving written argumentative competence using critical skills technology	243
A.I.Tuychiyev	
Maktabgacha yoshdagilar jismoniy madaniyati, vazifalari, harakat sifatlariga mansub kasbiy nazariy bilimlar	246
M.T.Zoxidova	
Interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalar orqali bo'lajak pedagoglarning mahoratini rivojlantirish	251
G.I.Otaboyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati.....	255
F.O'.Toshboltayev	
Pedagogik ta'lim va dars amaliyotida AKT integratsiyasining samaradorlikka ta'siri.	259
D.A.Muxammadaminova	
Pedagogik mahorat tushunchasining nazariy asoslari va zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan malaka talablari	262



UO'K: 37.013.378.096

PEDAGOGIK MAHORAT TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY O'QITUVCHIGA QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА И КВАЛИФИКАЦИОННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К СОВРЕМЕННОМУ УЧИТЕЛЮ****THEORETICAL FOUNDATIONS OF PEDAGOGICAL MASTERY AND QUALIFICATION REQUIREMENTS FOR THE MODERN TEACHER****Muxammadaminova Dildora Azatovna** 

Gyote Instituti til bo'limi boshlig'i

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagogik mahorat tushunchasining nazariy asoslari, uning asosiy tarkibiy qismlari hamda xorijiy til o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy malaka talablari yoritilgan. N.V. Kuzmina, A.B. Xalikov, Brown, Rodgers, Piepho, Hallet kabi yirik olimlarning nazariy qarashlari asosida pedagogik mahoratga oid milliy va xorijiy talqinlar taqqosiy tahlil qilingan. Shuningdek, EPOSTL, CEFR va Cambridge English Teaching Framework kabi xalqaro kompetensiyalar tizimlarining ahamiyati tahlil etilib, ularning o'zbek ta'lim tizimiga tatbiq etilishi bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические основы понятия «педагогическое мастерство», его основные структурные компоненты, а также современные квалификационные требования к преподавателям иностранных языков. Проведён сравнительный анализ национальных и зарубежных подходов на основе научных взглядов таких учёных, как Н.В. Кузьмина, А.Б. Халиков, Х.Д. Браун, К. Роджерс, Х.Э. Пифо и В. Халлет. Кроме того, изучена значимость международных рамочных документов (EPOSTL, CEFR, Cambridge Teaching Framework) и предложены рекомендации по их применению в системе образования Узбекистана.

Abstract

This article explores the theoretical foundations of the concept of pedagogical competence, its core components, and the current qualification requirements for foreign language teachers. The study conducts a comparative analysis of national and international perspectives based on the ideas of prominent scholars such as N.V. Kuzmina, A.B. Khalikov, Brown, Rodgers, Piepho, and Hallet. It also evaluates the significance of international frameworks such as EPOSTL, CEFR, and the Cambridge English Teaching Framework, proposing recommendations for their application in the Uzbek educational system.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, kompetensiya, metodik tayyorgarlik, refleksiya, EPOSTL, CEFR, Cambridge Teaching Framework.

Keywords: pedagogical competence, teaching qualification, methodological training, reflection, EPOSTL, CEFR, Cambridge Teaching Framework.

Ключевые слова: педагогическое мастерство, компетенция, методическая подготовка, рефлексия, EPOSTL, CEFR, Cambridge Teaching Framework.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining roli tobora ortib borayotgan bir paytda, pedagogik mahorat tushunchasining mohiyati, tarkibiy qismlari va unga qo'yiladigan malaka talablarini chuqur o'rganish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Pedagogik mahorat – bu o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini samarali tashkil eta olishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlar majmuasidir. [1.45]. O'qituvchidan nafaqat o'z fanini chuqur bilishi, balki o'quvchi shaxsini rivojlantira olishi, ta'lim jarayonini samarali tashkil eta olishi, zamonaviy texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarni qo'llay bilishi talab etiladi. Shu jihatdan pedagogik mahorat nafaqat kasbiy tayyorgarlik darajasini, balki shaxsiy fazilatlar, kommunikativ madaniyat, psixologik sezuvchanlik va yangilikka intilishni ham qamrab oladi. Ushbu maqolada pedagogik mahorat

tushunchasining nazariy asoslari, xorijiy va milliy tadqiqotchilar qarashlari hamda xorijiy til o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy malaka talablari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik mahorat tushunchasi turli olimlar tomonidan xilma-xil tarzda izohlangan. Masalan, N.V. Kuzmina pedagogik mahoratni beshta funksional komponent asosida tushuntiradi: gnostik, proyektiv, konstruktiv, kommunikativ va tashkiliy [1.45]. A.B. Xalikov esa o'qituvchining kasbiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, pedagogik mahoratni bilim, qobiliyat, uslub va psixologik tayyorgarlik majmuasi sifatida ko'rsatadi.[2.67]

G'arb metodistlari, jumladan Brown va Rodgers pedagogik mahoratni o'quvchi/talabalarga yo'naltirilganlik, interfaol muloqot, reflektiv yondashuv kabi jihatlar orqali izohlab, o'qituvchining ta'limda motivatsiya, erkin fikrlash va o'zini anglashga yordam berishini alohida qayd etadilar. [3.842–866]. Carol Rodgers, Dewey falsafasiga tayangan holda, reflektiv o'qituvchilikni samarali ta'limning asosi deb hisoblaydi.

Xorijiy til o'qituvchisiga qo'yiladigan malaka talablarini tahlil qilgan Hans-Eberhard Piepho [5.234.], Wolfgang Hallet [6.178.], E.N. Solovova [8.96], Galskova, Minyar-Beloruhev [9.231.] kabi mutaxassislar metodik, didaktik, kommunikativ, madaniyatlararo, reflektiv kompetensiyalarni o'qituvchining asosiy fazilatlarini sifatida ko'rsatganlar. Milliy manbalar, jumladan Alisher Navoiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Shayx Sadiy Sheroziy, L.N. Tolstoy kabi mutafakkirlar esa o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini, odobi, talabchanlik va mehr-oqibat muvozanati haqidagi fikrlarini ilgari surganlar.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada nazariy-tahliliy yondashuv asosida pedagogik mahoratga oid ilmiy qarashlar, milliy va xalqaro malaka mezonlari qiyosiy tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida kompetensiyaviy yondashuv (Shulman, 1987), innovatsion va kommunikativ texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, hamda reflektiv yondashuv nazariyasi tanlandi[4.200.]. Shuningdek, zamonaviy pedagogik metodikalar, xalqaro standartlar – Yevropa portfeli [11], Cambridge English Teaching Framework [10] – va ularning ta'lim sifatiga ta'siri o'rganildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, pedagogik mahorat o'qituvchining bilim, metodik yondashuv, muloqot, madaniy tafakkur va psixologik tayyorgarlik kabi ko'nikmalarini qamrab oladi. Ayniqsa, xorijiy til o'qituvchisi uchun yuqori darajadagi til kompetensiyasi (C1-C2), zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llay bilish, madaniyatlararo muloqotga tayyorlik va doimiy o'zini rivojlantirishga intilish muhim ahamiyatga ega [5.275.].

Innovatsion metodlar – rolli o'yinlar, guruhviy loyihalar, interfaol texnologiyalar, muammoli ta'lim, tanqidiy fikrlash mashqlari o'quvchilarning nutqiy faolligini va mustaqil fikrlashini oshiradi [7.67.], [8.89.]. Shuningdek, o'qituvchining refleksiya yuritish qobiliyati va o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilishga bo'lgan tayyorligi ta'lim sifatining muhim omilidir [4.289.].

XULOSA

Pedagogik mahorat o'qituvchining kasbiy faoliyatida yuksak natijalarga erishishining asosiy omillaridan biridir. Tahlil qilingan ilmiy qarashlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Pedagogik mahorat bilim, shaxsiy fazilat, didaktik va kommunikativ qobiliyatlarning uyg'unligidir.

2. Zamonaviy xorijiy til o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar xalqaro kompetensiyalar ramkalari asosida shakllanmoqda.

3. Interfaol va innovatsion yondashuvlar o'quvchining nutqiy rivojlanishi va darsning samaradorligini oshiradi.

4. Milliy pedagogik meros pedagogik mahoratga boy falsafiy va axloqiy asoslar beradi.

Kelajakda pedagogik mahoratni shakllantirish bo'yicha o'qituvchilarning uzluksiz rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, xalqaro tajribalarni amaliyotga tatbiq etish zarur. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кузьмина Н.В. Профессиональная деятельность учителя. – Москва: Педагогика, 2008. – С. 45.
2. Халиков А.Б. Педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ИҚТИСОД-МОЛИЯ, 2010. – Б. 312.
3. Brown H. D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Second Edition. – New York: Pearson Education, 2018. – P. 569.

ILMIY AXBOROT

4. Rodgers C. Defining Reflection: Another Look at John Dewey and Reflective Thinking. Teachers College Record, 104(4), 2017. – P. 842-866.
5. Piepho H. E. Kommunikative Kompetenz als übergeordnetes Lernziel im Englischunterricht. – Dornburg-Frickhofen: DM 16, 80, 1974. – S. 197.
6. Hallet W., Krämer U. Kompetenzentwicklung im Englischunterricht. – Seelze: Kallmeyer, 2024. – S. 184.
7. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. – Москва: Академия. 2006. – С. 336.
8. Соловова, Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: Базовый курс лекций. – Москва: Просвещение, 2005. – С. 239.
9. Миньяр-Белоручев Р.К. Методика обучения французскому языку. – Москва: Просвещение, 1990. – С. 224.
10. <https://www.cambridgeenglish.org/teaching-english/professional-development/cambridge-english-teaching-framework/>
11. <https://www.ecml.at/Resources/ECMLresources>